



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 396 sahifa,  
18-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<a href="#">Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</a>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori .....	14
<a href="#">Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</a>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<a href="#">Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</a>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni .....	23
<a href="#">Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</a>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari .....	28
<a href="#">B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<a href="#">Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</a>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<a href="#">Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</a>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	47
<a href="#">A. Safarov</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<a href="#">Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</a>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi .....	60
<a href="#">Xolmurodova Sarvinoz</a>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<a href="#">G'afforova Dildora Ergashevna</a>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<a href="#">Yusupova Umida Zayniddin qizi</a>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<a href="#">Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</a>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil .....	78
<a href="#">Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</a>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi .....	81
<a href="#">Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<a href="#">Xurramova Sojida Abdunazar qizi</a>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
<a href="#">Risvayeva Charos Zaydilla qizi</a>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi .....	94
<a href="#">Z. N. Urunova, M. Jaborova</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash .....	97
<a href="#">Sattorova Shirinoy San'atovna</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<a href="#">Buvrayev Akram Rustam o'g'li</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar .....	104
<a href="#">Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</a>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati .....	107
<a href="#">Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</a>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish .....	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi .....	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish .....	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements .....	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari .....	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish .....	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi .....	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя .....	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor .....	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar .....	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri .....	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli .....	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni .....	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari .....	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish .....	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari.....	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti .....	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction .....	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati .....	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari.....	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari.....	219
<i>Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish .....	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari.....	226
<i>Norboeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari .....	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili .....	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	240
<i>Kozimov Sayfulloh Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish.....	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari .....	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish.....	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish.....	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari .....	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari .....	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations .....	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari .....	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi.....	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools.....	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration .....	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	286
<i>Shodmonova Shoirsa Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari .....	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки) .....	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие .....	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	
Oila tushunchasi uning ijtimoiy ahamiyati haqida sharq mutafakkirlarining qarashlari.....	321
<i>Shokirov Xolida O'rozboq qizi, Abdurashidova Sarvinoz Akrom qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uyg'unligi .....	325
<i>Bekmirzayev Shavkat Olim o'g'li</i>	
Global ta'lim tendensiyalari asosida maktabgacha ta'lim mazmunini transformatsiyalash mexanizmlari .....	329
<i>Haqqiyeva Fotima Olimjonovna</i>	
O'zbekiston mustaqillik taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'lim paradigmalarning evolyutsion tahlili .....	333
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Sayfullayeva Parvina</i>	
Malaka oshirish tizimida o'qituvchi-pedagoglarning hamkorlikka asoslangan yondashuvining ilmiy ahamiyati.....	338
<i>Sobirova Lobar Raximovna</i>	
Qutqaruvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda ilmiy-metodologik yondashuvning ahamiyati .....	343
<i>Abdunosir Abdurasulovich G'afurov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishi kamchiliklarini bartaraf etishda pedagogik yondashuv .....	347
<i>To'rayeva Dilbar, Zulayxo Nazarova</i>	
Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarining mazmun-mohiyati .....	350
<i>Samadova Mahliyo, Zulayxo Nazarova</i>	
Harakatli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish .....	354
<i>Yaxyayeva Sojida Abduraximovna, Mustafayeva Dilfuza Jumanovna</i>	
Multimodal yondashuv asosida talabalarning ekologik kompetensiyalarini takomillashtirish tizimining ahamiyati.....	358
<i>O'sarova Muborak Fahriddinovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyati samaradorligini monitoring qilish tizimini loyihalashning tashkiliy-pedagogik asoslari.....	362
<i>Kurbanov Dilmurat Marupjanovich</i>	
Shaxs kamolotida ijtimoiy moslashuv va ma'naviy tarbiyaning ahamiyati .....	367
<i>Nazira Axmadjonovna Dadaboyeva</i>	
Individual yondashuv asosida maktab o'quvchilarida raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish va raqamli texnologiyalar integratsiyasi .....	371
<i>Xaydarova Zilola Normurodovna, Hasanov Samir Xayrulloevich</i>	



Tasviriy san'at mashg'ulotlarida differensial yondashuvning psixologik-pedagogik asoslari .....	375
<a href="#">Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</a>	
Onlayn muloqot strategiyalarining talaba kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri .....	379
<a href="#">Davlatova Ra'no Haydarovna, Islomova Shahlo Madat qizi</a>	
Ajrim yoqasidagi oilalarni ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish .....	385
<a href="#">Tojibayeva Nargiza Keldibekovna</a>	
Raqamli muhitda yolg'izlik fenomenining nazariy tahlili.....	389
<a href="#">Turg'unboyeva Nodira Baxtiyor qizi</a>	
Психологические последствия буллинга для личности подростка и его социализации.....	392
<a href="#">Амирова Луиза Маратовна</a>	



# O'ZBEKISTON MUSTAQILLIK TARAQQIYOTINING TURLI BOSQICHLARIDA TA'LIM PARADIGMALARINING EVOLYUTSION TAHLILI

Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining  
Urgut filiali Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasida katta  
o'qituvchisi

Sayfullayeva Parvina

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining  
Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 103-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillik davridagi ta'lim tizimining evolyutsion bosqichlari, an'anaviy ta'limdan zamonaviy raqamli va shaxsga yo'naltirilgan paradigmalariga o'tish jarayonlari hamda islohotlarning ijtimoiy-pedagogik natijalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, sifat nazoratini takomillashtirish va kreativ fikrlashni rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Maqolada ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim paradigmasi, evolyutsiya, mustaqillik, pedagogik texnologiya, raqamlashtirish, sifat nazorati, islohot, kreativ fikrlash, zamonaviy ta'lim, innovatsion yondashuv.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the evolutionary stages of the education system of Uzbekistan during the period of independence, the processes of transition from traditional education to modern digital and student-centered paradigms, and the socio-pedagogical outcomes of educational reforms. In addition, the article highlights current issues related to the introduction of innovative pedagogical technologies, the improvement of quality control, and the development of creative thinking. The significance of digitalization and modern pedagogical approaches in increasing the effectiveness of the educational process is also revealed.

**Key words:** education paradigm, evolution, independence, pedagogical technology, digitalization, quality control, reform, creative thinking, modern education, innovative approach.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируются эволюционные этапы системы образования Узбекистана в период независимости, процессы перехода от традиционного образования к современным цифровым и личностно-ориентированным парадигмам, а также социально-педагогические результаты реформ. Кроме того, освещаются актуальные вопросы внедрения инновационных педагогических технологий, совершенствования контроля качества образования и развития креативного мышления. В статье раскрывается значение цифровизации образовательного процесса и современных педагогических подходов в повышении эффективности образования.

**Ключевые слова:** образовательная парадигма, эволюция, независимость, педагогическая технология, цифровизация, контроль качества, реформа, креативное мышление, современное образование, инновационный подход.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgan ilk kunlardan o'q ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi. Ta'lim paradigmalari evolyutsiyasi bu shunchaki o'quv dasturlarining yangilanishi emas, balki ta'limning maqsadi, mazmuni va o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning konseptual o'zgarishidir<sup>[1]</sup>.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim tizimini sovet mafkurasidan xoli qilish va milliy qadriyatlarga asoslangan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifa bo'lgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda global ta'lim makoniga integratsiyalashuv, kompetensiyaviy yondashuv va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari kun tartibiga chiqdi. Bugungi kunda ta'lim paradigmasi "bilim berish"dan "o'rganishni o'rgatish"ga, ya'ni talabaning

mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayon mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun poydevor vazifasini o'tamoqda <sup>[5, 95-b.1]</sup>.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni tadqiq etishda bir qator olimlar va davlat arboblarning asarlari nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Sh. Mirziyoyevning ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarga bag'ishlangan nutqlari va farmonlari paradigmalar o'zgarishlarning huquqiy hamda konseptual negizini belgilab bergan <sup>[1]</sup>.

Pedagog olimlardan R. Jo'rayev va J. Yo'ldoshevlar ta'lim modernizatsiyasining didaktik va metodik jihatlari tahlil qilgan bo'lsalar, xalqaro miqyosda ta'lim paradigmalarini o'zgarishini T. Kuhn va J. Piajelarning nazariyalari orqali tushunish mumkin.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodologiya sifatida tarixiy-mantiqiy tahlil, qiyosiy pedagogik tahlil va statistik ma'lumotlarni interpretatsiya qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida O'zbekiston ta'lim tizimining 1991-2026-yillar oralig'idagi rivojlanish trayektoriyasi o'rganilib, har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari va o'tish davri krizislari tizimlashtirildi <sup>[3]</sup>.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillar ta'lim tizimi uchun nafaqat og'ir iqtisodiy sinov, balki ulkan mafkuraviy transformatsiya davri bo'ldi. Ushbu bosqichning konseptual mohiyati sovetcha andozalardan voz kechish va milliy zaminni yaratish tamoyili ustiga qurildi. Ushbu jarayonni quyidagi fundamental yo'nalishlar orqali kengroq tahlil qilish lozim.

Mustaqillikning ilk tongida ta'lim sohasidagi eng dolzarb vazifa - tizimni sobiq ittifoqning qat'iy markazlashgan va biryoqlama kommunistik mafkurasi asoratlaridan tozalash, ya'ni deideologizatsiya jarayonini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Sobiq tuzumda ta'lim paradigmasi shaxsni davlat mashinasining kichik bir bo'lak sifatida ko'rgan bo'lsa, mustaqillik ruhi markazga insonni, uning huquq va erkinliklarini hamda milliy qadriyatlarini olib chiqdi. 1992-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bu yo'nalishdagi huquqiy burilish nuqtasi bo'lib, u ta'limning dunyoviy xarakterini saqlab qolgan holda, unga insonparvarlik va demokratik mazmun bag'ishladi.

Mafkuraviy transformatsiyaning eng sezilarli natijalari gumanitar fanlar, xususan, tarix va adabiyot o'qitilishida namoyon bo'ldi. Sovet davrida xalqimizning buyuk davlatchilik tarixi va boy ilmiy merosi kamsitilgan yoki soxtalashtirilgan bo'lsa, yangi bosqichda tarixiy adolatni tiklash bosh mezonga aylandi.

Amir Temur, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi mutafakkirlarning siymolari va ilmiy xazinasi darsliklarning o'zagiga aylantirildi <sup>[2]</sup>. Bu esa talaba va o'quvchilarda "Biz kimmiz va kimlarning avlodimiz?" degan savolga milliy g'urur bilan javob topish imkonini berdi.

Shu bilan birga, 1993-yilda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish to'g'risidagi qaror ta'lim paradigmasining nafaqat milliy, balki global sivilizatsiyaga integratsiyalashuv sari tashlangan jasoratli qadami bo'ldi. Bu o'zgarish ta'lim tizimini jahon axborot makoniga olib chiqish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan bevosita muloqot qilish uchun yo'l ochdi. Garchi ushbu o'tish jarayoni darsliklarni yangilash va kadrlarni qayta tayyorlash kabi murakkab iqtisodiy qiyinchiliklar bilan kechgan bo'lsa-da, u ta'limni "yopiq sovet qobig'i"dan chiqarib, "ochiq dunyo tizimi"ga aylantirishning asosiy omiliga aylandi.

Ta'lim boshqaruvida obyektivlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida 1992-yildan boshlab oliy ta'limga qabul qilishning test tizimi joriy etilishi ham ushbu davrning inqilobiy yangiliklaridan biri edi. Bu paradigma almashinuvi qabul jarayonidagi subyektivlikka chek qo'yib, bilimli yoshlar uchun, ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, teng imkoniyatlar yaratdi.

Birinchiidan, ta'lim mazmunining shakllanishida "bilim markazlashgan" yondashuvdan "shaxsga yo'naltirilgan" yondashuvga o'tish jarayoni o'ta murakkab va bosqichma-bosqich kechdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim tizimi asosan fundamental bilimlarni saqlab qolish va ularni milliy g'oya bilan sug'orishga harakat qildi. Biroq vaqt o'tishi bilan shunchaki bilimlar majmuasi (ensiklopedik bilimlar) zamon talablariga javob bermasligi ayon bo'ldi. Shu sababli ta'lim paradigmasi o'quvchini tayyor axborotni xotirada saqlashga majburlaydigan tizimdan uni tahlil qilishga va amaliyotda qo'llashga o'rgatadigan tizimga aylandi. Bu o'zgarish darsliklar mazmunidan tortib, o'qitish metodikasigacha tubdan yangilanishni talab etdi.

O'zbekiston ta'lim tizimining mustaqillik yillaridagi taraqqiyot yo'li nafaqat tizimli islohotlar, balki chuqur falsafiy va pedagogik burilishlar silsilasidir. Bu jarayonning eng muhim nuqtasi - "bilim markazlashgan" yondashuvdan voz kechilib, "shaxsga yo'naltirilgan" ta'lim modeliga o'tilishidir. Ushbu transformatsiya shunchaki terminologik o'zgarish emas, balki jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishga bo'lgan munosabatning tubdan yangilanishidir.



Mustaqillikning ilk davrida ta'lim oldida turgan eng katta vazifa - mavjud ilmiy salohiyatni saqlab qolish va uni milliy manfaatlariga moslashtirish edi. O'sha paytda tizim asosan "axborot uzatuvchi" xarakterga ega bo'lib, aniq va tabiiy fanlar bo'yicha dunyo miqyosida tan olingan kuchli nazariy baza saqlab qolindi. Shu bilan birga, ta'lim mazmuniga milliy qadriyatlar, tarix va ona tili kabi tushunchalar tizimli ravishda kiritila boshlandi. Biroq ushbu bosqichda o'quvchi hali ham "tayyor bilimlarni qabul qiluvchi obyekt" sifatida ko'rilar edi. Darsliklar faktlar va ensiklopedik ma'lumotlar bilan haddan tashqari yuklangan bo'lib, bu o'quvchining mustaqil tahlil qilish imkoniyatini cheklab qo'yardi.

XXI asr - axborot asriga kelib, "ko'p bilimga ega bo'lish" o'zining birlamchi ahamiyatini yo'qotdi. Sababi, internet va raqamli texnologiyalar istalgan ma'lumotni bir necha soniyada topish imkonini berdi. Shu nuqtada ta'lim tizimi oldida yangi savol tug'ildi: "Agar hamma narsani internetdan topish mumkin bo'lsa, maktab bolaga nima berishi kerak?" Bu savolga javob sifatida kompetensiyaviy yondashuv yuzaga keldi. Endi ta'lim mazmuni shunchaki formulalarni yodlashga emas, balki muammoni aniqlash va uni hal qilish yo'llarini izlashga, axborot oqimi ichidan keraklisini saralab olish (media savodxonlik) hamda mantiqiy va tanqidiy fikrlashga yo'naltirila boshlandi.

Hozirgi bosqichda ta'limning markazida "fan" emas, balki "bola shaxsi" turibdi. Bu yondashuvda har bir o'quvchining o'zlashtirish sur'ati va qiziqishlari turlicha ekanligi inobatga olinadi. O'qituvchi endi "diktator" emas, balki "fasilitator" (yo'naltiruvchi) va maslahatchi rolini o'taydi. Darsliklar mazmuni "Nima?" degan savoldan "Nima uchun?" va "Qanday?" degan savollarga o'zgarimoqda. Masalan, matematikada faqat misol yechish emas, balki o'sha misolning kundalik hayotdagi (bank foizlari yoki qurilish o'lchovlaridagi) o'rni o'rgatilmoqda. Zamonaviy ta'lim mazmuniga muloqot madaniyati, jamoada ishlash, loyiha boshqarish va hissiy intellekt kabi "yumshoq ko'nikmalar" (soft skills) singdirilmoqda.

Ushbu murakkab o'tish jarayoni darsliklar avlodining almashishiga sabab bo'ldi. Yangi avlod darsliklari vizual jihatdan boyitilgan, interaktiv topshiriqlarga asoslangan va o'quvchini izlanishga chorlaydigan shaklda yaratilmoqda. STEAM ta'limi orqali fanlararo bog'liqlik kuchaytirildi, o'quvchi o'zi kichik tadqiqotlar o'tkazish orqali xulosa chiqarishga o'rgatilmoqda.

Ikkinchidan, pedagogik munosabatlar subyektlarining roli ham evolyutsion tarzda o'zgarib bordi. An'anaviy paradigmasida o'qituvchi yagona bilim manbai va mutlaq nazoratchi sifatida ko'rilgan bo'lsa, zamonaviy bosqichda uning o'rni fasilitatorlik, yo'naltiruvchilik va moderatorlikka ko'chdi. Endilikda o'qituvchi o'quvchiga dars bermaydi, balki o'quvchi bilan birga bilimni kashf etadi. Ushbu subyekt-subyekt munosabatlari ta'lim oluvchining mustaqilligini oshirdi, uning dars jarayonidagi mas'uliyatini kuchaytirdi va o'quv jarayonini demokratik tamoyillar asosiga qurdi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarda o'z fikrini erkin bayon etish va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirdi.

O'sha davrda ta'limning huquqiy va institutsional poydevorini qurish paradigmasi ustuvorlik kasb etdi. 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi birinchi Qonun ushbu evolyutsiyaning huquqiy kafolati bo'ldi. Mazkur hujjat bilan ta'lim sohasida dunyoviy xarakter saqlab qolinganda, inson huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini ustuvor deb biluvchi yangi tizim shakllantirildi. Ushbu paradigmaning o'ziga xosligi shundaki, u ilk bor davlatning ta'lim sohasidagi monopoliyasini yumshatishga qaratilgan edi. Masalan, 1990-yillarning o'rtalariga kelib ta'lim tizimida tabaqalanish jarayoni boshlandi: yangi turdagi o'quv muassasalari - gimnaziyalar, litseylar va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i kengaydi<sup>[3]</sup>. Bu o'quvchilarning iqtidori va qiziqishlariga qarab tabaqalashgan ta'lim olish huquqini amalda ta'minladi.

Qolaversa, ta'lim tizimining institutsional tuzilishi va boshqaruv paradigmasida ham katta o'zgarishlar kuzatildi. Agar o'tgan asrning oxirlarida ta'lim qat'iy davlat nazorati va unifikatsiyalashgan dasturlar asosida yuritilgan bo'lsa, bugungi kunda ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilishi paradigma almashinuvining eng yuqori nuqtasi bo'ldi. Bu o'zgarish oliy ta'lim muassasalariga mehnat bozori talablari-dan kelib chiqib, o'quv rejalarini mustaqil shakllantirish va ilm-fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasini yo'lga qo'yish imkonini berdi. Ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlari ham tashqi nazoratdan ichki sifatni ta'minlash va xalqaro akkreditatsiya tizimlariga o'tmoqda.

Til islohoti va lotin alifbosiga o'tish jarayoni ta'lim paradigmasining eng og'riqli, ammo strategik jihatdan eng muhim elementi bo'ldi. 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun ta'lim tizimi uchun ulkan mas'uliyat yukladi. Bu shunchaki yozuvni almashtirish emas, balki ta'limni xalqaro axborot makoniga olib chiqish, turkiy xalqlar bilan madaniy aloqalarni kuchaytirish va yosh avlodning jahon tillarini o'rganishini osonlashtirishni maqsad qilgan uzoqni ko'zlovchi paradigma edi. Ushbu o'tish davrida darsliklar tanqisligi va kadrlar tayyorlashdagi qiyinchiliklar kuzatilgan bo'lsa-da, u ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy drayveriga aylandi.

Shuningdek, ta'limning mazmuniy qismiga STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) va soft skills (yumshoq ko'nikmalar) tushunchalarining kirib kelishi mustaqillikning so'nggi bosqichidagi eng yirik yutuqlardan biridir<sup>[5]</sup>.

Zamonaviy kadr endilikda nafaqat o'z sohasining ustasi bo'lishi, balki kommunikativlik, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va raqamli savodxonlik kabi universal kompetensiyalarga ega bo'lishi shart deb belgilandi. Bu esa ta'lim tizimini iqtisodiyotning real sektori bilan uzviy bog'lab, bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichlarini sifat jihatidan yaxshiladi.

Ushbu bosqichda milliy pedagogik meros va ajdodlar o'g'itlari ta'lim jarayoniga tizimli ravishda singdirila boshlandi. "Sog'lom avlod uchun" ordenining ta'sis etilishi (1993) va 1993-yilning "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qilinishi ta'lim paradigmasining nafaqat "bilim berish", balki "jismonan va ma'nan sog'lom shaxsni tarbiyalash" tushunchasi bilan kengayganini ko'rsatdi. Al-Buxoriy, At-Termiziy kabi buyuk ulamolar, Al-Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek kabi allomalarning ilmiy merosi darsliklarning o'zagiga aylantirildi. Bu esa "Mustaqillik farzandi" konsepsiyasining nazariy asoslarini yaratdi.

Qolaversa, 1991-1997-yillar oralig'idagi evolyutsiya ta'limni boshqarish tizimini markazsizlashtirish (decentralization) tamoyillarini ham o'z ichiga oldi. Oliy o'quv yurtlarida ilk bor test tizimi orqali talabalarni qabul qilish (1992-yildan boshlab) joriy etildi. Bu paradigma almashinuvi ta'limda ijtimoiy adolatni ta'minlash, korrupsiya elementlarini kamaytirish va bilimli yoshlarga teng imkoniyatlar yaratish yo'lidagi inqilobiy qadam edi.

Shuningdek, xalqaro hamkorlikning ilk kurtaklari paydo bo'ldi - AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlar bilan talabalar almashinuvi, "Umid" jamg'armasining tashkil etilishi (1997) kabi harakatlar milliy ta'limni dunyoga ochish paradigmasining yorqin dalili bo'ldi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu birinchi bosqichda ta'lim tizimi o'zining "omon qolish" va "o'zlikni tanish" vazifalarini muvaffaqiyatli bajardi. Eski tizimning qulashi va iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, O'zbekiston ta'lim tizimi o'zining fundamental bazasini saqlab qoldi hamda keyingi bosqichda amalga oshiriladigan keng ko'lamli islohotlar uchun mustahkam nazariy-huquqiy zamin tayyorladi.

O'zbekiston ta'lim tizimi evolyutsiyasini shartli ravishda to'rtta asosiy bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich (1991-1997-yy.) - milliy ta'lim modelining shakllanishi va huquqiy asoslarning yaratilishi. Ikkinchi bosqich (1997-2016-yy.) - "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning amalga oshirilishi va 12 yillik majburiy ta'limga o'tilishi. Uchinchi bosqich (2017-2022-yy.) - maktabgacha ta'limning alohida tizim sifatida ajralishi, oliy ta'lim qamrovining kengayishi va sifat nazoratining kuchaytirilishi. To'rtinchi bosqich (2023-yildan hozirgacha) - ta'limni to'liq raqamlashtirish, STEAM texnologiyalarini joriy etish hamda oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish davri.

Quyidagi jadvalda ta'lim paradigmasining asosiy elementlari o'zgarishi ko'rsatilgan:

1-jadval: Ta'lim paradigmasining evolyutsion o'zgarishi

Paradigma elementlari	An'anaviy (1991-2016)	Zamonaviy (2017-2026)
<b>Ta'lim maqsadi</b>	Bilim va ko'nikmalarni uzatish	Kompetensiyalarni shakllantirish
<b>O'qituvchi roli</b>	Axborot manbai va nazoratchi	Fasilitator va mentor
<b>O'quvchi roli</b>	Ob'ekt (tinglovchi)	Sub'ekt (faol ishtirokchi)
<b>Baholash tizimi</b>	Miqdoriy (5 baholik)	Kriterial va formativ (kredit-modul)

Ushbu o'zgarishlar natijasida oliy ta'limga qabul ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Masalan, 2016-yilda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 40% dan oshdi. Bu o'z navbatida ta'lim sifatini ta'minlashning yangi mexanizmlarini, xususan, raqamli platformalar va multimedia vositalaridan foydalanishni taqozo etdi.<sup>[5]</sup>

2-jadval: Oliy ta'lim tizimidagi dinamik ko'rsatkichlar (2017-2025 yillar)

Yillar	OTMLar soni	Talabalar soni (ming kishi)	Qamrov darajasi (%)
<b>2017</b>	77	297.0	9%
<b>2021</b>	141	808.4	28%
<b>2025</b>	210+	1,200.0+	42%

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, paradigmalar evolyutsiyasi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy talablar bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi kunda mehnat bozori bitiruvchilardan nafaqat nazariy bilim, balki moslashuvchanlik, jamoada ishlash va axborot texnologiyalarini mukammal bilishni talab qilmoqda. Shuning uchun ham ta'lim mazmunida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga urg'u berilmoqda.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda ta'lim paradigmalari evolyutsiyasi uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Bugungi kunda shakllangan "Inson kapitalini rivojlantirish" paradigmasi mamlakatimizning yangi Uyg'onish davri - Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga xizmat qilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim tizimi endilikda yopiq tizim emas, balki jamiyat, iqtisodiyot va global texnologik jarayonlar bilan hamohang rivojlanayotgan ochiq va dinamik tuzilmadir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ta'lim paradigmasining evolyutsion rivojlanishi quyidagi natijalarga olib keldi:

*Birinchidan*, ta'limning uzluksizligi va barcha bosqichlarning (bog'cha - maktab - OTM) o'zaro bog'liqligi ta'minlandi.

*Ikkinchidan*, o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalar va STEAM yondashuvi kirib keldi, bu esa yoshlarning mantiqiy va ijodiy fikrlash doirasini kengaytirdi.

*Uchinchidan*, xalqaro tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'ziga xos "O'zbekiston ta'lim modeli" yangi bosqichga ko'tarildi.

Kelajakda ta'lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat kadrlarni tayyorlash, balki har bir shaxsning o'z potentsialini to'liq namoyon etishi uchun muhit yaratishdan iborat bo'lib qoladi. Bu esa o'qituvchilarning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishni va ta'lim infratuzilmasini eng zamonaviy standartlar darajasida saqlashni talab etadi. Milliy ta'lim paradigmasining muvaffaqiyati bevosita ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining qay darajada samarali yo'lga qo'yilishiga bog'liqdir.

Shunday ekan, davlatimiz tomonidan ta'limga kiritilayotgan investitsiyalar nafaqat iqtisodiy foyda, balki millatning ma'naviy va intellektual yuksalishi uchun qo'yilgan eng katta sarmoyadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B. 464.
2. Yo'ldoshev J.G'. - Yangi pedagogik texnologiyalar: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari - Toshkent: O'qituvchi, 1999. - B. 120.
3. Jo'rayev R. - Ta'limda innovatsion texnologiyalar - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014. - B. 180.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
5. Educational Paradigms in a Changing World - International Education Journal - London: Oxford University Press, 2022. - B. 95.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.